<i>Ikmattullayev G'. Z.</i>	
Raqamli muhitda kechiktirish (prokrastinatsiya) odatlari va ularning shaxsiy moliyaviy qarorlar sifatiga ta'siri.....	544
<i>Sultanova Saida Muhiddin qizi, Nematova Mahliyo Solijon qizi</i>	
Yoshlar ijtimoiylashuvi jarayonida oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari.....	548
<i>Sultanova Saida Muhiddin qizi, Musajonov Ulug'bek Ro'ziboy o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida mediaresurslardan foydalanish orqali o'quvchilarning fikrlash faolligini oshirish.....	551
<i>Bozorboyeva Muhabbat Tohirjon qizi</i>	
Adabiyot darslarida loyiha asosida ta'lim texnologiyalarini qo'llashning didaktik va metodik asoslari (5-sinf misolida) .....	556
<i>Azimjonova Shahnoza Dilshodbek qizi</i>	
4K modelini rivojlantirishda "Teskari sinf" (Flipped Classroom) texnologiyasining o'rni va ahamiyati .....	562
<i>Doniyorova Dildora Nuritdin qizi</i>	
4S festivali orqali Prezident maktablari pedagog va hodimlarida sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish .....	566
<i>Ibragimov Shuhratbek</i>	
Ergashgan qo'shma gapli maqollarning komponental xususiyati.....	571
<i>Xoliqova Nasiba Anvar qizi</i>	
Как через счёт и движение формировать здоровье с точки зрения педагогики восточного возрождения .....	574
<i>Алиходжаева Р., Калауова М.</i>	
Kurashchilarda musobaqa davrida stressga chidamlilikni shakllantirish .....	578
<i>Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich, Komilov Aziz Xoshimovich</i>	
Значение педагогической культуры в решении проблем подготовки преподавателей русского языка в высшем образовании .....	581
<i>Худайбердиева Дильфуза Мухтаровна</i>	

# MAKTABGACHA TA'LIM MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA BOSHQARUV MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGI

Nazirova Guzal Malikovna

Qo'qon DU professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy tayyorlash jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda zamonaviy ta'lim paradigmasi sharoitida pedagog kadrlar tayyorlash tizimida uchraydigan muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari hamda innovatsion va reflektiv yondashuvlarning ahamiyati ilmiy asoslangan. Bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, reflektiv faoliyatni rivojlantirish va amaliy tajribani shakllantirishning samarali usullari ishlab chiqilgan. Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari asosida taklif etilgan metodikalarning samaradorligi matematik-statistik usullar yordamida isbotlangan hamda ularning ta'lim sifatini oshirishga ijobiy ta'siri aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, kasbiy tayyorgarlik, boshqaruv mexanizmlari, refleksiya, kompetensiya, innovatsion yondashuv, pedagogik tajriba, ta'lim sifati.

**Abstract:** The article analyzes the improvement of mechanisms for organizing and managing the professional training processes of preschool educators. The study scientifically substantiates the challenges of teacher training within the modern educational paradigm, identifies ways to address them, and highlights the significance of innovative and reflective approaches. Effective methods for developing the professional competence of future educators through learner-centered education, reflective practices, and practical experience have been developed. The results of the pedagogical experiment were verified using mathematical and statistical methods, confirming the positive impact of the proposed methodologies on improving the quality of education.

**Key words:** preschool education, educator, professional training, management mechanisms, reflection, competence, innovative approach, pedagogical experiment, quality of education.

**Аннотация:** Проанализированы вопросы совершенствования механизмов организации и управления процессами профессиональной подготовки воспитателей дошкольного образования. В исследовании научно обоснованы проблемы подготовки педагогических кадров в условиях современной образовательной парадигмы, пути их решения, а также значение инновационных и рефлексивных подходов. Разработаны эффективные методы формирования профессиональной компетентности будущих воспитателей на основе личностно-ориентированного обучения, развития рефлексивной деятельности и практического опыта. Результаты педагогического эксперимента подтверждены математико-статистическими методами, что позволило определить положительное влияние предложенных методик на повышение качества образования.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, воспитатель, профессиональная подготовка, механизмы управления, рефлексия, компетентность, инновационный подход, педагогический эксперимент, качество образования.

## KIRISH

Ta'lim paradigmasining o'zgarishi rivojlantiruvchi ta'limning barcha tarkibiy qismlariga alohida ta'sir ko'rsatadi. Paradigmaning o'zgarishi an'anaviy va innovatsion ta'lim missiyasi bilan solishtirganda o'zini namoyon qiladi. Zamonaviy ta'limning ijtimoiy hodisa sifatidagi vazifasi madaniyatlar sivilizatsiyasi, avlodlar tomonidan yaratilgan madaniyat qatlamlari, bilimlarda mustahkamlangan, idrok etilgan qadriyatlar asosida yosh avlodning jamiyat hayotiga kirishini ta'minlash, avlodlarning bilimlar tizimini o'zlashtirgan holda aniq tarixiy jarayonning faol subyektlariga aylanishini ta'minlashdan iborat.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Modellar asosida yaratilgan mavjud dasturlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ko'p hollarda ularda sezilarli kamchiliklar mavjud bo'lib, ular qilingan sa'y-harakatlarga mos keladigan natijaga ishonishga imkon bermaydi: maqsadlar yetarli darajada operativ aniqlanmagan, harakat rejaları ko'pincha bir-biriga bog'liq bo'lmagan organik faoliyatning an'anaviy rejalarini takrorlaydi, bundan tashqari, ular haqiqiy resurslar bilan yomon muvozanatlashgan.

Dasturlar kelajakdagi ta'lim ehtiyojlaridagi o'zgarishlarning zaruriy prognoziz bugungi kunga qaratilgan holda yaratilgan. Tabiiyki, ular ta'lim tizimidagi o'zgarishlarning maqsadga muvofiqi va integratsiyasini ta'minlovchi vositaga aylana olmaydi. Shu bois, bizning fikrimizcha, noxush oqibatlariga barham berish uchun shahar ta'limini boshqarish tizimida ilmiy-metodik ishlar qator fundamental tamoyillar asosida qurilishi zarur.

Umumiy vazifa maktabgacha ta'lim tizimining imkoniyatlarini oshirish va unga mutaxassislar tayyorlashning eng yuqori sur'atlarini ta'minlash hamda ta'lim darajasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish uchun ulardan foydalanish samaradorligini oshirishdan iborat. Rivojlanishni boshqarishning o'ziga xos vazifalari ta'lim tizimida ta'lim va boshqa muassasalarning innovatsiyalarga sezgirligi va moyilligini oshiradigan, ularni faol innovatsiyalarga rag'batlantiradigan eng qulay innovatsion muhitni yaratish, shuningdek, ta'limni (o'z kompetensiyalari doirasida) rivojlantirish, ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha o'z dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha mintaqaviy dasturlarni qo'llab-quvvatlash hamda amalga oshirishdan iborat.

Tadqiqot mantig'i bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini tayyorlash jarayonini ko'rib chiqishni talab qiladi. Bu 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: **Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini tayyorlash jarayoni mazmuni**

Jihatlar	Tavsifi
<b>Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini tashkilot a'zosi sifatida tayyorlash</b>	Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonlari barcha darajadagi turli xil vaqtinchalik yoki doimiy muassasalarda tashkil etilgan odamlarning (o'qituvchilar va talabalar) birgalikdagi faoliyati va o'zaro ta'siri orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ta'lim jarayoni murakkab iyerarxik tashkiliy-tarkibiy tuzilma sifatida namoyon bo'ladi. Unda tashkiliy tuzilma (o'quv mashg'uloti) va ta'limning tegishli tashkiliy tuzilmalari (fakultet, kurs, akademik guruh), ta'lim muassasalarini boshqarishning tashkiliy tuzilmalari nisbatan alohida ajralib turadigan birlikdir.
<b>Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini tizim ishtirokchisi sifatida tayyorlash</b>	Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonlari, ularning obyektlari, shartlari va natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar, tashkiliy-rasmiylashtirilgan muassasalar va ta'lim jarayoni ishtirokchilari ko'rsatilgan darajaning har birida ta'lim dasturlari amalga oshiriladigan tegishli quyi tizimlarni shakllantiradi. Ko'p bosqichli quyi tizimlarning o'zaro bog'langan majmui ta'lim tizimining umumiy tizimini tashkil qiladi. Umumiy tizimda ham, quyi tizimda ham yuqori tartibli tizim bilan munosabatlar yo'li, vazifalar, obyektlar, funksiyalari, tizimning tashkiliy tuzilishi, ta'lim muassasalarining tashkiliy tuzilmalari, tashkiliy tadbirlar bir xil amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlash tizimini tizim va tashkilot sifatida ko'rib chiqib, uning o'ziga xosligi, xususiyatlarini saqlab qolgan holda, jamiyat sharoitiga moslasha olishini hisobga olamiz. Va biz murakkab tizim obyekti bilan shug'ullanayotganimiz sababli, uni boshqarish nuqtayi nazaridan biz avval ko'rib chiqqan tizim obyektlarining o'zini o'zi tashkil qilish nazariyasining asosiy qoidalarini hisobga olishimiz kerak. Ular orasida:

- tizimda beqaror holatlarning mavjudligi uning barqaror va doimiy rivojlanishi sharti hisoblanadi;
- tizimning kelajakdagi holati uning hozirgi holatiga ta'sir etadi, tartibga soladi, shakllantiradi;
- tizimning rivojlanish sohasi uning ichki xususiyatlari bilan belgilanadi va muqobil yo'llarni o'z ichiga olishi kerak.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar tayyorlash samaradorligini oshirish uchun talabalarining shaxsiy funksiyalarining namoyon bo'lishi va rivojlanishini ta'minlaydigan pedagogik sharoitlar yaratish juda muhim ahamiyatga ega. Ular orasida eng muhimlari tarbiyachi-pedagogning maktabgacha ta'lim tizimida kasbiy faoliyatga tayyorligi integratsiya ko'rsatkichlari bo'lgan refleksiya funksiyasi va amaliy shaxsiy tajribasi hisoblanadi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Shularni hisobga olib, biz tomonimizdan ikki yo'nalishda pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borilgan:

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida talabalarni refleksiya faoliyatiga jalb etish;
- bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning amaliy tajribasini shakllantirish.

Bizning oldimizga refleksiya faoliyati yetakchi o'rinni egallaydigan, bo'lajak tarbiyachi-pedagogga o'zini yaxshiroq bilib olishi, turli pedagogik vaziyatlarda o'zini ko'rishni o'rganishi, o'ziga shaxs va mutaxassis sifatida ijobiy munosabatda bo'lishi mumkin bo'lgan, bu unga o'z qobiliyatlari va imkoniyatlarini yetarli darajada baholashga yordam beradigan va ijodiy o'zini o'zi rivojlantirish yo'llarini aniqlashga yordam beradigan ko'nikmalar bilan ta'minlaydigan o'quv jarayonini tashkil etish vazifasi qo'yildi.

Biz tomonimizdan bo'lajak tarbiyachi-pedagogning kasbiy sohada uning motivatsion-qiymatli yo'nalishlarini shakllantirishga, umuman olganda, kasbiy "Men-konsepsiyasi"ni rivojlantirishga hissa qo'shuvchi shaxsiy va kasbiy o'zini o'zi bilish hamda o'zini o'zi belgilashning refleksiv jarayonlarini faollashtirishni o'z ichiga olgan refleksli ta'lim dasturi ishlab chiqildi.

Refleksli ta'lim dasturini amalga oshirish bir-biriga bog'liq bo'lgan uchta blokni o'z ichiga olgan innovatsion-refleksli amaliyot shaklida amalga oshirildi.

*Birinchi blok* bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning shaxsiy xususiyatlari, o'ziga bo'lgan munosabati, o'z shaxsiyati va ta'lim faoliyati haqida xabardor bo'lishga bag'ishlangan. Unda psixodiagnostika, savol-javob, talabalar e'tiborini o'z shaxsiga, ularning tajribalari, fikrlari, o'quv faoliyati usullariga qaratishga yo'naltirilgan mashqlar kiritilgan.

*Ikkinchi blok* bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning o'zini kasbiy faoliyat va muloqot tizimida anglashga qaratilgan. Unga psixodiagnostika, so'rovnoma, professional ahamiyatli sifatlar bo'yicha mashqlar, turli o'yinlar kiradi.

*Uchinchi blok* bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy faoliyatini optimallashtirishga qaratilgan. U o'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun bevosita o'quv-kasbiy faoliyatda amalga oshirildi. O'quv-kasbiy faoliyat tajriba jarayonida bo'lajak pedagoglar tomonidan shakllantirilgan kasbiy faoliyatning asosiy mezonini sifatida qaraldi.

Talabalarning refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirishga bo'lgan munosabat, agar pedagogik shartlar yig'indisi talabalarning ma'lum bir reflekslilik darajasiga erishish uchun o'ziga xos vosita bo'lsagina amalga oshirilishi mumkin.

Shunday qilib, tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, talabalar tomonidan fanning ta'rifi va uning bo'lajak tarbiyachi-pedagog shaxsini o'z-o'zini tarbiyalashdagi ahamiyati refleksiv fikrlash konseptual, nazariy jihatdan yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bu, agar o'quv jarayoni talabalarning refleksiya tajribasiga asoslangan bo'lsa, shaxsiy refleksni rivojlantirish samarali bo'ladi degan pozitsiyani tasdiqlaydi.

O'z-o'zini rag'batlantirish shaxsning o'z borlig'ining chuqur qatlamiga murojaat qilishi, uni saqlab qolish va boyitishsiz shaxsga aylanish, o'z-o'zini rivojlantirish va mas'uliyat qobiliyatini rivojlantirish, ma'nolarni o'stirish va amalga oshirish, pirovard natijada insonning dunyoga, boshqa odamlarga, o'ziga munosabatiga ma'naviy vaziyatni belgilaydi. Aynan shaxsning refleksiya tajribasi, o'z-o'zidan va improvizatsiyaga asoslangan ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro ta'sirini tashkil etish ma'no yaratishning asosi sifatida shaxsiy motivatsiyaning rivojlanishini ta'minlaydi.

Tajriba-sinov tarzidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil etishda yangi ijodiy yondashuvlar majmuasini o'z ichiga oladi.

Talabalarning o'zini o'zi kasbiy-shaxsiy rivojlantirish va amaliy tajribasini shakllantirishni faollashtirish texnologiyasi to'rt bosqichdan iborat:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining ilg'or tajribalari bilan tanishish, uning davomida yangi metodikalarning mexanizmi va algoritmi haqida tasavvurlar shakllantiriladi va mavjud tajriba bazasini ijodiy ravishda kengaytirish jarayonida talabalar o'z harakatlarining aqliy dasturini tuzadi;
- taqdim etilgan tajribaga nisbatan o'z pozitsiyasini ishlab chiqish va algoritmi o'z texnikasi, vositalari hamda metodlari bilan to'ldirish;
- ta'lim-tarbiya ishining mustaqil ishlab chiqilgan shakllarini amalga oshirish;
- muallifning o'zini chetlatgan holda bajarilgan ishni tahlil qilish.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba-sinov ishining ikkinchi bosqichida bo'lajak tarbiyachining kasbiy o'sishidagi o'zgarishlar dinamikasi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval: Bo'lajak tarbiyachining kasbiy sohasidagi o'zgarishlar dinamikasi o'sishi, %

Ko'nikmalar ko'rsatkichlari	Tajriba-sinov ishining boshlanishi	Tajriba-sinov ishining tugashi
Yangi ish tajribasi bilan tanishish: a) o'z-o'zini baholash; b) o'qituvchining bahosi	54; 58	76; 87
Taqdim etilgan tajribaga munosabati bo'yicha o'z pozitsiyasini ishlab chiqish: a) o'z-o'zini baholash; b) o'qituvchining bahosi	47; 62	81; 94
Ta'lim-tarbiya ishining mustaqil ishlab chiqilgan shakllarini amalga oshirish: a) o'z-o'zini baholash; b) o'qituvchining bahosi	69; 73	96; 89
Muallif komponenti bilan qo'shilgan holda o'tkazilgan ishlar tahlili: a) o'z-o'zini baholash; b) o'qituvchining bahosi	75; 87	93; 95

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, shaxsga yo'naltirilgan tajribaga xos bo'lgan asosiy ko'nikmalar talabalarning ko'p qismida shakllanadi. Kelgusida tajriba-sinov ishining uchinchi bosqichida talabalarda tarbiyachining eng muhim vazifalarini bajarishga tayyorgarlikni shakllantirish, turli pedagogik vaziyatlarni mustaqil qurish, pedagogik hodisani tahlil qilish ko'nikmalari bilan qurollantirish amalga oshiriladi. Talabalarda ilmiy-pedagogik qarashlar va e'tiqodlar rivojlanadi, ularning ichki pozitsiyasi shakllanadi. Bunga ko'p jihatdan haqiqiy pedagogik ish sharoitlariga imkon qadar yaqinroq bo'lgan yakuniy pedagogik amaliyot yordam beradi. Bu jarayonda bo'lajak tarbiyachilar majmuaviy holda olingan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni ijodiy darajada amalga oshiradilar, ular o'zlarining yaxlit pedagogik jarayon kontekstida shaxsiy pedagogik harakatlarini anglaydilar.

Kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish shaxsning o'zini o'zi boshqarish faoliyatining yuqori shakli va bo'lajak tarbiyachining kasbiy faoliyatining amaliy tajribasini amalga oshirishga tayyorligining eng muhim ko'rsatkichi sifatida tadqiqotning uchinchi bosqichida davom etadi. Bunga o'quv vazifalarini shaxsiy darajada belgilash, ularni hayotiy muammo sifatida boshdan kechirish, bo'lajak tarbiyachi tomonidan vazifani mustaqil ravishda belgilash, ularning imkoniyatlari va xohishlaridan kelib chiqib, vaziyatlarni modellashtirish, pedagogik faoliyatning mualliflik modellarini yaratish orqali erishiladi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari Namangan davlat universiteti, Guliston davlat universiteti, Jizzax davlat pedagogika universiteti va Qo'qon davlat pedagogika instituti sharoitida 2020-2024-yillarda olib borildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari yakunida nazorat guruhida 157 nafar va tajriba-sinov guruhida 163 nafar, jami 320 nafar oliy ta'lim muassasalari talabarlari ishtirok etishdi.

Tajriba-sinov maydonchalarida olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida talabalar tomonidan egallangan kompetensiyalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari 3-jadvalda keltirilgan bo'lib, matematik-statistik ishlov berish materiali bo'lib xizmat qildi.


3-jadval: Olib borilgan pedagogik tajriba-sinov natijalari

Talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichi	Nazorat guruhida				Tajriba-sinov guruhida			
	Tajriba boshida n=159		Tajriba oxirida n=157		Tajriba boshida m=168		Tajriba oxirida m=163	
Yuqori	15	9,43%	26	16,56%	16	9,52%	48	29,45%
O'rta	50	31,45%	70	44,59%	59	35,12%	94	57,67%
Past	94	59,12%	61	38,85%	93	55,36%	21	12,88%

Tadqiqot natijalariga "Xi kvadrat" ( $\chi^2$ ) muvofiqlik mezonini bo'yicha matematik-statistik ishlov berish uchun ishchi jadval ishlab chiqildi (4-jadval).

4-jadval: "Xi kvadrat" (c2) muvofiqlik mezonni ishchi jadvali

Talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichi	Yuqori	O'rta	Past	Σ
Tajriba-sinov guruhi	E <sub>1</sub> = 48	E <sub>2</sub> = 94	E <sub>3</sub> = 21	ne= E <sub>1</sub> + E <sub>2</sub> + E <sub>3</sub> =163
Nazorat guruhi	K <sub>1</sub> = 26	K <sub>2</sub> = 70	K <sub>3</sub> = 61	nk= K <sub>1</sub> + K <sub>2</sub> + K <sub>3</sub> =157
Σ	E <sub>1</sub> + K <sub>1</sub> =74	E <sub>2</sub> + K <sub>2</sub> =164	E <sub>3</sub> + K <sub>3</sub> =82	n= ne+ nk=320



Nazorat guruhi – 157 ta talaba; tajriba-sinov guruhi – 163 ta talaba

3-rasm: Nazorat va tajriba-sinov guruhlaridagi talabalarning umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichlari

Muvofiqlik mezonining koeffitsienti  $\chi^2$  quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\chi^2 = \frac{1}{n_E \cdot n_K} \sum_{i=1}^C \frac{(n_E \cdot K_i - n_K \cdot E_i)^2}{E_i + K_i} = \frac{1}{n_E \cdot n_K} \cdot \left[ \frac{(n_E \cdot K_1 - n_K \cdot E_1)^2}{E_1 + K_1} + \frac{(n_E \cdot K_2 - n_K \cdot E_2)^2}{E_2 + K_2} + \frac{(n_E \cdot K_3 - n_K \cdot E_3)^2}{E_3 + K_3} \right]$$

$$= \frac{1}{163 \cdot 157} \left[ \frac{(163 \cdot 26 - 157 \cdot 48)^2}{48 + 26} + \frac{(163 \cdot 70 - 157 \cdot 94)^2}{94 + 70} + \frac{(163 \cdot 61 - 157 \cdot 21)^2}{21 + 61} \right] \approx 29,46$$

Bu yerda:

E<sub>1</sub>, E<sub>2</sub>, E<sub>3</sub>, E<sub>4</sub> – tegishli o'zlashtirish darajalariga muvofiq tarzda tajriba-sinov guruhidagi o'quvchilar soni;

n<sub>e</sub> – tajriba-sinov guruhidagi o'quvchilarning umumiy soni;

K<sub>1</sub>, K<sub>2</sub>, K<sub>3</sub>, K<sub>4</sub> – tegishli o'zlashtirish darajalariga muvofiq tarzda nazorat guruhidagi ishtirokchilar soni;

n<sub>k</sub> – tajriba-sinov guruhidagi ishtirokchilarning umumiy soni;

S – baholashdagi oraliqlar soni.

Hisoblashlar natijalari asosida  $\chi^2_{emp} \approx 29,46$  ekanligi aniqlandi. Bizning tadqiqotimizda erkinlik darajasi n=S-1=3-1=2 va bu erkinlik darajasi uchun c2 – muvofiqlik mezonni maxsus jadvali bo'yicha 95% ishonchlik oralig'i uchun  $\chi^2_{krit 95\%} = 5,99$ , shuningdek, 99% ishonchlik oralig'i uchun esa,  $\chi^2_{krit 99\%} = 9,21$  qiymatlar to'g'ri keladi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy tayyorlash jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlaridagi natijalarning samaradorligi 14,73 foizga yuqoriligi matematik-statistika usullari orqali isbotlandi. Bu esa biz tomonimizdan ishlab chiqilgan metodikalarning amaliyotda qo'llanilishi oliy ta'lim sifati va samaradorligini oshirishi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon berdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida: Qaror. – Toshkent, 2019-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2019-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022-yil.
4. Organisation for Economic Co-operation and Development. Starting Strong V: Transitions from Early Childhood Education and Care to Primary Education. – Paris: OECD Publishing, 2020.
5. National Association for the Education of Young Children. Professional Standards and Competencies for Early Childhood Educators. – Washington, DC, 2020.
6. Mamatqulov A., Xo'jayev B. Maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiya metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021-yil.
7. Abduqodirov A., Ishmuhamedov R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020-yil.
8. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2019-yil.
9. To'raqulov X. Pedagogik tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2020-yil.
10. Qodirova F. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2018-yil.
11. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019-yil.
12. UNESCO. Early Childhood Care and Education: Global Report. – Paris, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.